**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI**

**BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**
**O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti rektori**

**______________ A.Mansurov**

**202**4 **yil "**30**"** avgust

*Ro'yxatga olindi: № BD 60211400-1.01*

# ESTRADA XONANDALIGI

# FANINING O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 210 000 - San'at

**Ta'lim yo'nalishi:** 60211400– Vokal san'ati: estrada xonandaligi

**Toshkent – 2024**

| Fan/modul kodi<br>EX1818 | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>1-8 | ECTS-Kreditlar<br>18 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>2 |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | Estrada xonandaligi | 240 | 300 | 540 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

"Estrada xonandaligi" fanining asosiy maqsadi - talabalarga mazkur soha bo'yicha mukammal bilimlarni va ijro mahoratini o'stirishdan iboratdir. Talabalar o'zbek va dunyo estradasining mashhur vokal asarlarini ijro etish, yuksak namunalari asosida tarixiy va amaliy bilim berish, fortepiano jo'rligida va fonogramma minus jo'rligida ijrochilik mahoratini shakllantirib o'stirishdan iboratdir. Shuningdek, talabalarda yuqori badiiy did bilan birga barcha yo'nalishdagi zamonaviy stilistik yo'nalishlarida ijro etish mahoratini o'stirish, milliy va butunjaxon musiqiy tafakkurini shakllantirishdan iboratdir.

"Estrada xonandaligi" fanining o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir.

"Estrada xonandaligi" fani estrada sahnasida keng faoliyat ko'rsatadigan, yuqori malakali mahoratga ega xonandalarni tayyorlash uchun muxim o'rin tutadi. Umajburiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1, 2, 3 va 4-kurslarda yakka darslar shaklida o'qitiladi.

**II. Asosiy qism (yakka mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I - II SEMESTRLARI**

**1 kurs.** Birinchi va ikkinchi semestr. Dasturiy talablar:

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada va jaz vokalizi (№№ 1-15);
O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i;
O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari;

2 ta jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

**Kirish. 1-mavzu. Estrada yakka xonandaligi fanining maqsadi va vazifalari, musiqa ta'limidagi o'rni.**

Har bir dars – rahbar sinfida yakka amaliy mashg'ulotlartarida o'tib, mashqlar (ovoz sozlash) va badiiy estrada asarlarini o'rganib, fortepiano va fonogramma minus jo'rligida kuylashdan iboratdir. Fanning asosiy vazifasi: alohida e'tibor professional darajani mukammallashtirishga, tovush apparatining texnik rivojiga, zamonaviy estrada va jaz stilistik yo'nalishlarini o'zlashtirishga, artistik mahoratni rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. "Estrada yakka xonandaligi" fani o'quv rejasida belgilangan semestrlarda, yakka amaliy mashg'ulotlarshaklida o'tkaziladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Mazkur fan ixtisoslik sinfida o'z kasbini egallashda, professional ijrochilik mahoratini oshirishda, konsert ijrochilik madaniyatini shakllantirishda, va sahna ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishiga qaratilgan.

Ovoz paydo bo'lishi va uning jarangdor bo'lishi texnologiyasini ongli ravishda yondashishni o'rgatmoq, turli Estrada yo'nalishidagi asarlarni badiiy va texnik xususiyatlarini mustaqil analiz qilish; texnik apparatlari bilan ta'minlangan estrada konsertlarini uyushtirish, konsert repertuarlarini o'zlashtirish

**2-mavzu. Ovoz sozlash mashqlari.**

Har bir dars vokal mashqlaridan boshlanagi. O'qituvchi-rahbar har bir talabaga individual ravishda, talabaning ovoz tayyorgarligiga binoan, ovoz mashqlarida ijrochilik ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Legato, kantilena, arpedjio, staccato, artikulyatsiya va estrada-jaz mashqlari. Xonandalik nafas olish ko'nikmasini vujudga keltirish. Tirgakli tovushni his qilish. Aniq talaffuz. Pastki, o'rta va yuqori tessituradagi tovushlarni silliqlash. Sof intonatsiya. Ovoz filirovkasi. Vidrato, soul ifodasini o'zlashtirish. Sahna madaniyati, artistizm ko'nikmalarini shakllantirish.

**3-4-mavzu. Ijro repertuarini shakllantirish. O'zbekiston kompozitorlari asarlari ijrosi.**

O'zbek va dunyodagi mashhur jaz va estrada musiqasining yuksak professional namunalari asosida ijro repertuarini tanlash. 1960-1970 yillar o'zbek klassik kompozitorlarining estrada qo'shiqlari: I.Akbarov, M.Burxonov, M.Leviyev, E.Salixov, E.Shiryayev, D.Zokirov qo'shiqlari.

Zamonaviy O'zbekiston kompozitorlarining estrada-jaz asarlari:

D.Amanullayeva, A.Ikromov, D.Ilyosov, A.Nazarov, A.Rasulov, A.Ergashev, A.Mansurov, N.Norxo'djayev qo'shiqlari. Yu.Usmonova, S.Nazarhon, O.Nazarbekov dasturidan asarlar. Vatanparvarlik mavzusidagi asarlar.

**5-6-mavzu. Chet el kompozitorlari va estrada yulduzlari dasturidagi asarlar ijrosi.**

Rossiya kompozitorlarining mashhur estrada vokal asarlari: A.Zatsepin, A.Paxmutova, A.Babadjanyan, M.Magomayev, A.Pugachyova, I.Krutoy, I.Nikolayev, R.Pauls qo'shiqlari.

G'arbiy Yevropa va AQSh davlatlarining mashhur estrada yulduzlari ijro dasturlaridagi populyar estrada-jaz qo'shiqlari.

**7-mavzu. Vokal ijro ko'nikmalarini rivojlantirish.**

Mukammallashtirilgan tovush tembrini ko'rsatish; Sof intonatsiya; Tovushning yaqqol attakasi; Ifodali ijroni ko'rsatmoq. Ovoz diapazonini kengaytirmoq. Ovozni kuychan darajada (kantilena, soul, vibrato) yo'naltira bilish, stilistik manerali ijroni namoyon etish.

**8-9-mavzu. Vokalizlar ijrosi.**

O'quv dasturida har bir semestrda 2-ta Estrada-jaz vokalizi ijrosi majburiydir. Unda D.Amanullayeva yaratgan Estrada va jaz vokalizlari ijro etiladi. 1-2 kurslarda har semestrda №№1-15 doirasidagi vokalizlardan ikkitadan vokalizlar ustida ishlab, ijrochilik mahoratlarini oshirmoq lozim bo'ladi.

**10-mavzu. Jo'rnavoz dilan ishlash.**

Har bir ustoz sinfida pianinochi-jo'rnavoz asarlar ijrosida ko'maklashadi. Vokalizlar va ayrim badiiy asarlar fortepiano jo'rligida ijro etiladi. Unda asarlarning mahoratli ijrosini jo'rnavoz dilan birga, takkroran repetitsiya jarayonida o'zlashtiriladi. Albatta, har bir talaba tanlangan asarlarni nota va so'z matnini mustaqil tayyorlab keliushi talab etiladi.

**11-mavzu. Fonogramma minus jo'rligida kuylash.**

Estrada-jaz vokal asarlarini ijrosi tartibida fonogramma minus jo'rligida jonli kuylash qoidalari ustida ham ish olib boriladi. Unda talaba, rahbar boshchiligida, fonogramma minus jo'rligida repetiziyali ishda asarlarni mahoratli ijrosini rivojlantiradi. Albatta, har bir talaba tanlangan asarlarni nota va so'z matnini mustaqil tayyorlab keliushi, fonogrammani yoddan bilishi talab etiladi.

**12-mavzu. Kafedra tartibidagi tanlovlarga tayyorlash.**

Talabalar o'quv jarayonida Oraliq va Yakuniy Nazorat attestatsiyalariga tayyorgarlik ko'radilar. Undan tashqari, kafedra rejasida har bir semestrda talabalar o'rtasida sahna ijrochiligida tanlovlar o'tkaziladi. Bu: "Eng yaxsh vokalizlar ijrosi", "Eng yaxshi o'zbek asarining ijrosi", "Eng yaxshi chet el qo'shiqlari ijrosi" kabi tanlovlarga talabalar tayyorgarlik ko'radilar va qatnashadilar.

Iste'dodli talabalar esa kafedraning konsert dasturlarida o'z ijrolari bilan qatnashadilar, Respublika va xalqaro tanlovlarda qatnashib, konzert-ijrochilik mahoratlarini oshiradilar.

**13-mavzu. Sinf kontsertlariga tayyorlash.**

Har bir professor-o'qituvchi o'quv yili davrida 1-2ta Sinf kontsertlari yoki Master klasslar o'tkazishni rejalashtiradi. Sinf kontsertlari yoki Master klasslarda talabalar sahnada o'z ijrolari bilan qatnashadilar. Unga alohida konzert dasturi tanlanadi, mahoratli ijro ustida tayyorgarlik ko'riladi. Ushbu konzertlarda talabalar sahna-ijrochilik mahoratlarini oshiradilar.

**14-mavzu. Zamonaviy stilistik ifoda.**

Zamonaviy stillar ifodasi ustida ishlash. "Soul" yo'nalishining ifodasi ustida ishlash. Chet el tillarda sof talaffuz; jo'rnavoz bilan ishlash, minidisk va mikrofon bilan to'g'ri ishlash. Tovush ustida ishlash, filirovkani rivojlantirish. Rok-opera yoki myuzikldan ariya; Estrada romansi, ashula yoki ballada asarlari ustida ishlash.

**15-mavzu. Mikrofon bilan ishlash qoidasi.**

Estrada-vokal ijrochilgi san'ati albatta mikrorfon va ovoz kuchaytirish apparatlari bilan bog'liqdir. Talaba o'qish jarayonida mikrofon bilan ishlash qoidalarini, uning spezifikasini va tehnikasini o'zlashtirishi kerak. Estrada sahnasi madaniyatida mikrofonni to'g'ri va erkin ishlatish, Fortepiano va fonogramma minus jo'rligida mikrofonda ijro etilishi qoidalarini o'zlashtirishi, Zamonaviy harakatlanmoq ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Talaba har doim mustaqil izlanishlar olib borishi, o'z ijrochilik mahoratini va bilimlar doirasini kengaytirishga intilishi shart.

**Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat.**

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada va jaz vokalizi (№№ 1-15);

O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i;
O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari;
2 ta jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

**III - IV SEMESTRLARI**

**2 kurs.** Uchinchi va to'rtinchi semestr. Dasturiy talablar:
2 ta estrada va jaz vokalizi;
O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i;
O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari;
2 ta jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

**1-mavzu. Estrada xonandaligi fanining maqsadi va vazifalari, musiqa ta'limidagi o'rni.**

Har bir dars – rahbar sinfida yakka amaliy mashg'ulotlarida o'tib, mashqlar (ovoz sozlash) va badiiy estrada asarlarini o'rganib, fortepiano va fonogramma minus jo'rligida kuylashdan iboratdir. Fanning asosiy vazifasi: alohida e'tibor professional darajani mukammallashtirishga, tovush apparatining texnik rivojiga, zamonaviy estrada va jaz stilistik yo'nalishlarini o'zlashtirishga, artistik mahoratni rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. "Estrada xonandaligi" fani o'quv rejasida belgilangan semestrlarda, yakka amaliy mashg'ulotlarshaklida o'tkaziladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Mazkur fan ixtisoslik sinfida o'z kasbini egallashda, professional ijrochilik mahoratini oshirishda, konsert ijrochilik madaniyatini shakllantirishda, va sahna ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishiga qaratilgan.

Ovoz paydo bo'lishi va uning jarangdor bo'lishi texnologiyasi ongli ravishda yondashishni o'rgatmoq, turli Estrada yo'nalishidagi asarlarni badiiy va texnik xususiyatlarini mustaqil analiz qilish; texnik apparatlari bilan ta'minlangan estrada konsertlarini uyushtirish, konsert repertuarlarini o'zlashtirish.

**2-mavzu. Ilk ijro ko'nikmalari.**

Ovoz sozlash mashqlari. Legato, staccato mashqlari. Xonandalik nafas olish ko'nikmasini vujudga keltirish. Tirgakli tovushni xis qilish. Aniq talaffuz. Pastki, o'rta va yuqori tessituradagi tovushlarni silliqlash. Sof intonatsiya. Ovoz filirovkasi. Sahna madaniyati.

**3-4-mavzu. Ijro repertuarini shakllantirish.**
**O‘zbekiston kompozitorlari asarlari ijrosi.**

O‘zbek va dunyodagi mashhur jaz va estrada musiqasining yuksak professional namunalari asosida ijro repertuarini tanlash. 1960-1970 yillar o‘zbek klassik kompozitorlarining estrada qo‘shiqlari: I.Akbarov, M.Burxonov, M.Leviyev, E.Salixov, E.Shiryayev, D.Zokirov qo‘shiqlari.

Zamonaviy O‘zbekiston kompozitorlarining estrada-jaz asarlari: D.Amanullayeva, A.Ikromov, D.Ilyosov, A.Nazarov, A.Rasulov, A.Ergashev, A.Mansurov, N.Norxo‘djayev qo‘shiqlari. Yu.Usmonova, S.Nazarhon, O.Nazarbekov dasturidan asarlar. Vatanparvarlik mavzusidagi asarlar.

**5-6-mavzu. Chet el kompozitorlari va**
**estrada yulduzlari dasturidagi asarlar ijrosi.**

Rossiya kompozitorlarining mashhur estrada vokal asarlari: A.Zatsepin, A.Paxmutova, A.Babadjanyan, M.Magomayev, A.Pugachyova, I.Krutoy, I.Nikolayev, R.Pauls qo‘shiqlari.

G‘arbiy Yevropa va AQSh davlatlarining mashhur estrada yulduzlari ijro dasturlaridagi populyar estrada-jaz qo‘shiqlari.

**7-mavzu. Vokal ijro ko‘nikmalarini rivojlantirish.**

Mukammallashtirilgan tovush tembrini ko‘rsatish; Sof intonatsiya; Tovushning yaqqol attakasi; Ifodali ijroni ko‘rsatmoq. Ovozni kuychan darajada («kantilena») yo‘naltira bilish, stilistik manerali ijroni namoyon etish.

**8-mavzu. Vokalizlar ijrosi.**

O‘quv dasturida har bir semestrda 2-ta Estrada-jaz vokalizi ijrosi majburiydir. Unda D.Amanullayeva yaratgan Estrada va jaz vokalizlari ijro etiladi. 1-2 kurslarda har semestrda №№1-15 doirasidagi vokalizlardan ikkitadan vokalizlar ustida ishlab, ijrochilik mahoratlarini oshirmoq lozim bo’ladi.

**9-mavzu. Ovoz diapazonini kengaytirmoq.**

Ovoz mashqlari. Ovoz kengaytirish mashqlari. Arpedjio mashqlari. 2 ta texnika elementli estrada va jaz vokalizi; 2 ta O‘zbekiston kompozitorlarining klassik va zamonaviy estrada asari; 2 ta jahon estrada yulduzlarining zamonaviy estrada asarlari (original tillarda) ijrosi ustida ishlash.

**10-mavzu. Imtihon yoki konsertga tayyorlash.**

Talabalar o‘quv jarayonida Oraliq va Yakuniy Nazorat attestatsiyalariga tayyorgarlik ko‘radilar. Undan tashqari, kafedra rejasida har bir semestrda

talabalar o'rtasida sahna ijrochiligida tanlovlar o'tkaziladi. Bu: "Eng yaxshi vokaliz ijrosi", "Eng yaxshi o'zbek asarining ijrosi", "Eng yaxshi chet el qo'shiqlari ijrosi" kabi tanlovlarga talabalar tayyorgarlik ko'radilar va qatnashadilar. Iste'dodli talabalar esa kafedraning konsert dasturlarida o'z ijrolari bilan qatnashadilar, konsert-ijrochilik mahoratlarini oshiradilar.

**11-mavzu. Rivojlangan texnik ijro.**

Tovushning erkin filirovkasi; Rivojlangan va erkin tirgakli tovush; zamonaviy stilistik ifodani ko'rsatmoq; Soul, Asarlardagi badiiy obrazni ko'rsatmoq. Ovoz diapazonining yuqori va past registrlarini kengligini ko'rsatmoq; Rivojlangan texnik ijroni ko'rsatmoq (soul, nola, glissando, blu-odl, sving va hokazo).

**12-mavzu. Zamonaviy stilistik ifoda.**

Zamonaviy stillar ifodasi ustida ishlash. "Soul" yo'nalishining ifodasi ustida ishlash. Chet el tillarda sof talaffuz; jo'rnavoz bilan ishlash, minidisk va mikrofon bilan to'g'ri ishlash. Tovush ustida ishlash, filirovkani rivojlantirish. Rok-opera yoki myuzikldan ariya; Estrada romansi, ashula yoki ballada asarlari ustida ishlash.

**13-mavzu. Badiiy obraz ustida ishlash.**

Artistizm va sahna madaniyati ustida ishlash. O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari; Vatanparvarlik ruxidagi asar; Jaz yo'nalishidagi asar. 3 ta asar o'zbek tilida, 2 ta asar rus, g'arb davlatlari tillarida; fortepiano va fonogramma minus jo'rligida ijro etilishi shart.

**14-mavzu. Konsert ijro repertuarini boyitish**

Repertuarni kengaytirish ishini davom ettirish, badiiy ijrochilik masalalarini samarali bajarish, talabaning mustaqil ishi imkoniyatlarini kengaytirish, diplom dasturini tayyorlash va ijro etish. Vokal texnik mahoratining yuqori professional darajasini, badiiy ijrochilik sahna madaniyatini, artistik mahoratni ko'rsatish, vokal texnik repertuarida ko'rsatilgan barcha uslublardan foydalana bilish.

**15-mavzu. Ijro mahorati**

Badiiy pofessional ijro ustida ishlash. Ijro texnikasini rivojlantirish. Davlat Attestatsiya dasturi talablari: Ixtisosiy talablar: Sahna mahorati va madaniyati; Badiiy professional ijro; Asarlarning zamonaviy yo'nalishidagi stilistik ijrosi; Artistik mahorat; Diapazoni keng yorqin ovozni namoish etmoq; O'zbek va chet tillardagi asarlarda erkin va aniq talaffuz; Mikrofonni erkin ishlatmoq;

Zamonaviy harakatlanmoq. Mustaqil izlanishlar olib borish.

**Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat.**

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada va jaz vokalizi;
O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i;
O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari;
2 ta jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

## V - VI SEMESTRLARI

**3 kurs.**Beshinchi va oltinchi semestr. Dasturiy talablar:
1 ta estrada va jaz vokalizi (D.Amanullayeva 16-25);
O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i;
O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy (Vatanparvarlik) estrada asari;
2 ta jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

### 1-mavzu. Estrada xonandaligi fanining maqsadi va vazifalari, musiqa ta'limidagi o'rni.

Har bir dars – rahbar sinfida yakka amaliy mashg'ulotlarida o'tib, mashqlar (ovoz sozlash) va badiiy estrada asarlarini o'rganib, fortepiano va fonogramma minus jo'rligida kuylashdan iboratdir. Fanning asosiy vazifasi: alohida e'tibor professional darajani mukammallashtirishga, tovush apparatining texnik rivojiga, zamonaviy estrada va jaz stilistik yo'nalishlarini o'zlashtirishga, artistik mahoratni rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. "Estrada xonandaligi" fani o'quv rejasida belgilangan semestrlarda, yakka amaliy mashg'ulotlarshaklida o'tkaziladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Mazkur fan ixtisoslik sinfida o'z kasbini egallashda, professional ijrochilik mahoratini oshirishda, konsert ijrochilik madaniyatini shakllantirishda, va sahna ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishiga qaratilgan.

Ovoz paydo bo'lishi va uning jarangdor bo'lishi texnologiyasi ongli ravishda yondashishni o'rgatmoq, turli Estrada yo'nalishidagi asarlarni badiiy va texnik xususiyatlarini mustaqil analiz qilish; texnik apparatlari bilan ta'minlangan estrada konsertlarini uyushtirish, konsert repertuarlarini o'zlashtirish.

**2-mavzu. Ilk ijro ko'nikmalari.**

Ovoz sozlash mashqlari. Legato, staccato mashqlari. Xonandalik nafas olish ko'nikmasini vujudga keltirish. Tirgakli tovushni xis qilish. Aniq talaffuz. Pastki, o'rta va yuqori tessituradagi tovushlarni silliqlash. Sof intonatsiya. Ovoz filirovkasi. Sahna madaniyati.

**3-4-mavzu. Ijro repertuarini shakllantirish.**
**O'zbekiston kompozitorlari asarlari ijrosi.**

O'zbek va dunyodagi mashhur jaz va estrada musiqasining yuksak professional namunalari asosida ijro repertuarini tanlash. 1960-1970 yillar o'zbek klassik kompozitorlarining estrada qo'shiqlari: I.Akbarov, M.Burxonov, M.Leviyev, E.Salixov, E.Shiryayev, D.Zokirov qo'shiqlari.

Zamonaviy O'zbekiston kompozitorlarining estrada (Vatanparvarlik) asarlari: D.Amanullayeva, A.Ikromov, D.Ilyosov, A.Nazarov, A.Rasulov, A.Ergashev, A.Mansurov, N.Norxo'djayev qo'shiqlari. Yu.Usmonova, S.Nazarhon, O.Nazarbekov dasturidan asarlar. Vatanparvarlik mavzusidagi asarlar.

**5-6-mavzu. Chet el kompozitorlari va**
**estrada yulduzlari dasturidagi asarlar ijrosi.**

Rossiya kompozitorlarining mashhur estrada vokal asarlari: A.Zatsepin, A.Paxmutova, A.Babadjanyan, M.Magomayev, A.Pugachyova, I.Krutoy, I.Nikolayev, R.Pauls qo'shiqlari.

G'arbiy Yevropa va AQSh davlatlarining mashhur estrada yulduzlari ijro dasturlaridagi populyar estrada-jaz qo'shiqlari.

**7-mavzu. Vokal ijro ko'nikmalarini rivojlantirish.**

Mukammallashtirilgan tovush tembrini ko'rsatish; Sof intonatsiya; Tovushning yaqqol attakasi; Ifodali ijroni ko'rsatmoq. Ovozni kuychan darajada («kantilena») yo'naltira bilish, stilistik manerali ijroni namoyon etish.

**8-mavzu. Vokalizlar ijrosi.**

O'quv dasturida har bir semestrda 1-ta Estrada-jaz vokalizi ijrosi majburiydir. Unda D.Amanullayeva yaratgan Estrada va jaz vokalizlari ijro etiladi. 3-kursda har semestrda №№16-25 doirasidagi vokalizlardan bittadan vokalizlar ustida ishlab, ijrochilik mahoratlarini oshirmoq lozim bo'ladi.

**9-mavzu. Ovoz diapazonini kengaytirmoq.**

Ovoz mashqlari. Ovoz kengaytirish mashqlari. Arpedjio mashqlari. 2 ta texnika elementli estrada va jaz vokalizi; 2 ta O‘zbekiston kompozitorlarining klassik va zamonaviy estrada (Vatanparvarlik) asari; 2 ta jahon estrada yulduzlarining zamonaviy estrada asarlari (original tillarda) ijrosi ustida ishlash.

**10-mavzu. Imtihon yoki konsertga tayyorlash.**

Talabalar o‘quv jarayonida Oraliq va Yakuniy Nazorat attestatsiyalariga tayyorgarlik ko‘radilar. Undan tashqari, kafedra rejasida har bir semestrda talabalar o‘rtasida sahna ijrochiligida tanlovlar o‘tkaziladi. Bu: “Eng yaxshi vokaliz ijrosi”, “Eng yaxshi o‘zbek asarining ijrosi”, “Eng yaxshi chet el qo‘shiqlari ijrosi” kabi tanlovlarga talabalar tayyorgarlik ko‘radilar va qatnashadilar. Iste’dodli talabalar esa kafedraning konsert dasturlarida o‘z ijrolari bilan qatnashadilar, konsert-ijrochilik mahoratlarini oshiradilar.

**11-mavzu. Rivojlangan texnik ijro.**

Tovushning erkin filirovkasi; Rivojlangan va erkin tirgakli tovush; zamonaviy stilistik ifodani ko‘rsatmoq; Soul, Asarlardagi badiiy obrazni ko‘rsatmoq. Ovoz diapazonining yuqori va past registrlarini kengligini ko‘rsatmoq; Rivojlangan texnik ijroni ko‘rsatmoq (soul, nola, glissando, blu-odl, sving va hokazo).

**12-mavzu. Zamonaviy stilistik ifoda.**

Zamonaviy stillar ifodasi ustida ishlash. “Soul” yo‘nalishining ifodasi ustida ishlash. Chet el tillarda sof talaffuz; jo‘rnavoz bilan ishlash, minidisk va mikrofon bilan to‘g‘ri ishlash. Tovush ustida ishlash, filirovkani rivojlantirish. Rok-opera yoki myuzikldan ariya; Estrada romansi, ashula yoki ballada asarlari ustida ishlash.

**13-mavzu. Badiiy obraz ustida ishlash.**

Artistizm va sahna madaniyati ustida ishlash. O‘zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari; Vatanparvarlik ruxidagi asar; Jaz yo‘nalishidagi asar. 3 ta asar o‘zbek tilida, 2 ta asar rus, g‘arb davlatlari tillarida; fortepiano va fonogramma minus jo‘rligida ijro etilishi shart.

**14-mavzu. Konsert ijro repertuarini boyitish**

Repertuarni kengaytirish ishini davom ettirish, badiiy ijrochilik masalalarini samarali bajarish, talabaning mustaqil ishi imkoniyatlarini kengaytirish, diplom

dasturini tayyorlash va ijro etish. Vokal texnik mahoratining yuqori professional darajasini, badiiy ijrochilik sahna madaniyatini, artistik mahoratni ko'rsatish, vokal texnik repertuarida ko'rsatilgan barcha uslublardan foydalana bilish.

**15-mavzu. Ijro mahorati**

Badiiy pofessional ijro ustida ishlash. Ijro texnikasini rivojlantirish. Davlat Attestatsiya dasturi talablari: Ixtisosiy talablar: Sahna mahorati va madaniyati; Badiiy professional ijro; Asarlarning zamonaviy yo'nalishidagi stilistik ijrosi; Artistik mahorat; Diapazoni keng yorqin ovozni namoish etmoq; O'zbek va chet tillardagi asarlarda erkin va aniq talaffuz; Mikrofonni erkin ishlatmoq; Zamonaviy harakatlanmoq. Mustaqil izlanishlar olib borish.

**Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat.**

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.
1 ta estrada va jaz vokalizi (D.Amanullayeva 16-25);
O'zbekiston kompozitorlarining klassik estrada qo'shig'i;
O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy (Vatanparvarlik) estrada asari;
2 ta jahon estrada yulduzlarining klassik estrada qo'shiqlari – Rossiya estradasi va G'arbiy Yevropa, AQSh estradasi (original tillarda).

**VII - VIII SEMESTRLARI**

**Konsert ijro repertuarini boyitish. Mahorat ustida ishlash.**
Repertuarni kengaytirish ishini davom ettirish, badiiy ijrochilik masalalarini samarali bajarish, talabaning mustaqil ishi imkoniyatlarini kengaytirish, diplom dasturini tayyorlash va ijro etish.

**Ixtisosiy talablar:**
Talaba quyidagilarni namoyish etishi shart:
*vokal texnik mahoratining yuqori professional darajasini,*
*badiiy ijrochilik sahna madaniyatini,*
*artistik mahoratni,*
*vokal texnik repertuarida ko'rsatilgan barcha uslublardan foydalana bilishini.*

**Davlat Attestatsiya dasturi talablari:**
**Ixtisosiy talablar:**
Sahna mahorati va madaniyati;
Badiiy professional ijro;

Asarlarning zamonaviy yo'nalishidagi stilistik ijro;
Artistik mahorat;
Diapazoni keng yorqin ovozni namoish etmoq;
O'zbek va chet tillardagi asarlarda erkin va aniq talaffuz;
Mikrofonni erkin ishlatmoq;
Zamonaviy harakatlanmoq.

**Bitiruv dasturi talablari**:
Zamonaviy myuzikl yoki rok-operadan ariya;
O'zbekiston kompozitorlarining Vatanparvarlik ruhidagi asari; Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan jaz asari;
O'zbekiston kompozitorining yangi original qo'shig'i (yoki oxirgi 5 yilda yaratilgan qo'shiq);
2-ta jahon estrada va jaz yulduzlarining turli stilistik yo'nalishidagi zamonaviy asarlari (original tillarda).
Dasturdagi 1 ta asar estrada orkestri jo'rligida; 3 ta asar o'zbek tilida, 3-ta asar evropa tillarida; 2 ta asar vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart.

**1-2-mavzu. Ijro repertuarini kengaytirish.**

Repertuar tanlashda talabaning tayyorgarlik darajasi, ovoz nuqsonlarini e'tiborga olish. Repertuarni dasturiy talablarga monand tanlash. O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy asarlarini o'rganish. Vatanparvarlik ruhidagi asarlar ijrosi. Romans yoki ballada ijrosi. Jaz yo'nalishidagi asar ijrosi. Jaz kompozitsiyasini his etish va to'g'ri ifoda etish. "Soul" yo'nalishini egallash. Repetitsiyali ish olib borish.

**3-4-mavzu. Rivojlangan texnik ijro.**

Ovoz diapazonining yuqori va past registrlarini kengligini ko'rsatmoq; Rivojlangan texnik ijroni ko'rsatmoq (soul, vibrato, nola, glissando, blu-odl, sving va xokazo).

Tovushning erkin filirovkasi; Rivojlangan va erkin tirgakli tovush; zamonaviy stilistik ifodani ko'rsatmoq; Soul, Asarlardagi badiiy obrazni ko'rsatmoq.

**5-mavzu. Zamonaviy stilistik ifoda.**

Zamonaviy stillar ifodasi ustida ishlash. "Soul" yo'nalishining ifodasi ustida ishlash. Chet el tillarda sof talaffuz; jo'rnavoz bilan ishlash, minidisk va mikrofon bilan to'g'ri ishlash.

**6-mavzu. Tovushning erkin filirovkasi.**

Tovush ustida ishlash, filirovkani rivojlantirish. Jaz yo'nalishidagi vokaliz ijrosi. Rok-opera yoki myuzikldan ariya; Estrada romansi, ashula yoki ballada asarlari ustida ishlash.

**7-8-mavzu. Badiiy obraz ustida ishlash.**

Artistizm va sahna madaniyati ustida ishlash. O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari; Vatanparvarlik ruhidagi asar; Jaz yo'nalishidagi asar. 3 ta asar o'zbek tilida, 2 ta asar rus, g'arb davlatlari tillarida; fortepiano va fonogramma minus jo'rligida ijro etilishi shart.

**9-mavzu. Konsert ijro repertuarini boyitish.**

Repertuarni kengaytirish ishini davom ettirish, badiiy ijrochilik masalalarini samarali bajarish, talabaning mustaqil ishi imkoniyatlarini kengaytirish, diplom dasturini tayyorlash va ijro etish. Vokal texnik mahoratining yuqori professional darajasini, badiiy ijrochilik sahna madaniyatini, artistik mahoratni ko'rsatish, vokal texnik repertuarida ko'rsatilgan barcha uslublardan foydalana bilish.

**10-mavzu. Ijro mahorati.**

Badiiy pofessional ijro ustida ishlash. Ijro texnikasini rivojlantirish.

Davlat Attestatsiya dasturi talablari: Ixtisosiy talablar: Sahna mahorati va madaniyati; Badiiy professional ijro; Asarlarning zamonaviy yo'nalishidagi stilistik ijrosi; Artistik mahorat; Diapazoni keng yorqin ovozni namoish etmoq; O'zbek va chet tillardagi asarlarda erkin va aniq talaffuz; Mikrofonni erkin ishlatmoq; Zamonaviy harakatlanmoq. Mustaqil izlanishlar olib borish.

**11-12-mavzu. Bitiruv dastur.**

Bitiruv dasturini tayyorlash. Bitiruv dasturi talablari: Estrada-jaz vokaliz ijrosi, Zamonaviy myuzikl yoki rok-operadan ariya yoki estrada romansi; O'zbekiston kompozitorlarining Vatanparvarlik ruhidagi asar ijrosi; Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan jaz asari; O'zbekiston kompozitorining yangi original qo'shig'i (yoki oxirgi 5 yilda yaratilgan qo'shiq); 2-ta jahon estrada va jaz yulduzlarining turli stilistik yo'nalishlaridagi zamonaviy asarlari ijrosi (original tillarda).

**13-mavzu. Sahna mahorati.**

Asar ijrosida sahnadagi harakat. Erkinlik. Tomoshabin bilan ishlash.

Ansambl bilan ishlash. Orkestr bilan ishlash.

**14-mavzu. Zamonaviy estrada xonandasining ijro ko'nikmalari.**

Texnik vositalar bilan ishlash. Sahna madaniyati. Ijro ko'nikmalarini namoyon etish.

**15-mavzu. Mikrofon bilan ishlash texnikasi.**

Texnik vositalari bilan shilashda ovoz va tembr hususiyatlari. Tovush rejissyori bilan ishlash va terminlarni qo'llash. Texnik nosozliklarni bartaraf qilish.

**Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat.**

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

Zamonaviy myuzikl yoki rok-operadan ariya;

O'zbekiston kompozitorlarining Vatanparvarlik ruhidagi asari; Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan jaz asari;

O'zbekiston kompozitorining yangi original qo'shig'i (yoki oxirgi 5 yilda yaratilgan qo'shiq);

2-ta jahon estrada va jaz yulduzlarining turli stilistik yo'nalishidagi zamonaviy asarlari (original tillarda).

**Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish va ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi.**

**Ijro dasturini topshirish:**

1. Zamonaviy myuzikl yoki rok-operadan ariya;
2. O'zbekiston kompozitorlarining Vatanparvarlik ruhidagi asari; Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan jaz asari;
3 O'zbekiston kompozitorining yangi original qo'shig'i (yoki oxirgi 5 yilda yaratilgan qo'shiq);
4. 2-ta jahon estrada va jaz yulduzlarining turli stilistik yo'nalishidagi zamonaviy asarlari (original tillarda).

Eslatma:

1. Dasturdagi 1 ta asar estrada orkestri jo'rligida; 3 ta asar o'zbek tilida, 3-ta asar evropa tillarida; 2 ta asar vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart;
2. Bakalavriat davrida talabaning o'quv dasturida o'tilgan asarlardan biri kiritilishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish:**

Bitiruv Malakaviy ishlarini baholashda talabalarning bilimi, berilgan mavzuning nazariy tomonidan bilishi, o'ylashi, auditoriyaga o'z fikrini nuqtai nazardan aniq va qiziqarli bildirish jihatlari diqqatga olinadi va shu asosida baholanadi.

**Yakka mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Yakka mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. O'qituvchi rahbarligida vokal kuylash ko'nikmalarini egallash;
2. Ovoz sozlash mashqlari;
3. Tanlangan asarlarni o'rganish va fortepiano jo'rligida repetitsiya qilish;
4. Asarlar ijrosida ritm va dinamika, talaffuz va obraz ustida ishlash;
5. Vokal ijro texnikasini o'stirish;
6 Oraliq va Yakuniy nazorat, tanlovlar va konsertlarga tayyorgarlik ko'rish. Vokal ijro mahorati, artistizm, stil ifodasi ko'nikmalarini egallash;
7. Talabalar bir-birini tinglab, ijroni baholash;
8. Ayrim asarlarning ijro talqinlari musiqiy yozuvlarini tinglab ko'rish;
9. Tajriba repetitsiyalar vositasida o'z ijodiy yoki ijro yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirish.

Yakka amaliy mashg'ulotlar fortepiano jo'rligida, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir talabaga bir professor-o'qituvchi va jo'rnavoz tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlarda faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan,

| | |
|---|---|
| | repetitoriylardan, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.<br><br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br><br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1.Tanlangan asarning musiqiy va she'riy matnini tahlil qilish.<br>2.Tanlangan asarni matnini yodlash.<br>3.Ritm va stil ustida ishlash.<br>4.Soul va kantilena ifodasi ustida ishlash.<br>5.Musiqiy obraz va artistizm ifodasi ustida ishlash.<br>6.Nazorat, tanlovlar va konsertlarga tayyorgarlik ko'rish.<br>7.O'zbek kompozitorlarining ijodi va yangi yaratilgan asarlari haqida ma'lumot olish.<br>8.Internet orqali mashhur estrada yulduzlarining ijrolarini tahlil qilish.<br>9.Zamonaviy estrada xonandaligiga oid ma'lumotlarni bilish.<br><br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar davrasida brifinglar, taqdimotlar, asarlarning ijrolari tavsiya etiladi. |
| **3.** | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllangan kompetensiyalari)**<br><br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>- estrada qo'shiqchiligi tarixi va rivoji bosqichlari;<br>– jo'rnavoz va fonogramma minus bilan ishlash yo'llari;<br>- o'zbek va dunyodagi mashhur estrada va jaz xonandalarining ijro uslublari ***xaqida tasavvurga ega bo'lishi***;<br>- Estrada va jaz musiqasining klassik va zamonaviy uslubiy yo'nalishlarini;<br>– vokal ovoz registrlari, xajmini va ovoz imkoniyatlarini;<br>– vokal nota matnlarini o'qish va tahlil qilishni;<br>– sahna madaniyatini;<br>– Estrada vokal ijrochilik san'atining turli ifoda va texnik imkoniyatlarini rivojlantirishni;<br>– Estrada vokal ijrochiligida badiiy ifoda me'yorlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;<br>– asar ijrosida sof intonatsiya, rivojlangan ovoz diapazoni va filirovkasi, |

| | |
|---|---|
| | sof talaffuz, artistik mahorat va ta'sirli badiiy ijro etish;<br>– yangi tanlangan asarni mustaqil tayyorlash va sahnaga olib chiqish;<br>– o'zbek va Yevropa estrada vokal asarlarining klassik va zamonaviy uslubiy yo'nalishlarining manerali ijrosi;<br>– konsertlarga tayyorgarlik ko'rish;<br>– mikrofonni erkin ishlatish;<br>– musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• har bir talabaga individual ravishda yondoshish;<br>• yakka tarzda repetitsiyali ish;<br>• konsertlarga tayyorgarlik;<br>• sahnada ijro etish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, jo'rnavoz va fonogramma minus jo'rligida vokal asarini to'g'ri ijro etish, vokal ijro ko'nikmalarini egallash; o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, tanlov va konsertlarda qatnashmoq, yakuniy nazorat - ijro dasturini topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. D.Omonullayeva. Estrada xonandaligi. O'quv qo'llanma. – T.: "O'zDK", 2007.<br>2. Amanullayeva D. Estrada xonandaligi. O'quv qo'llanma. – T.: "Musiqa", 2015.<br>3. M.Orinbayeva. Estradnie pesni. O'quv qo'llanma. – T., 2010<br>4. Amanullayeva D. Estrada va jaz vokalizlari. O'quv qo'llanma. T.: "Musiqa", 2014.<br>5. G.Zokirova. Eng gullagan yoshlik chog'imda. – Toshkent, 2011. |

| | |
|---|---|
| | **Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Yu.Turayev. "XX asr ozbek estrada qo'shiqlari", T., «Musiqa», 2016.<br>2. Amanullayeva D. Pedagogik repertuarni o'rganish. Darslik. 2022. Elektron.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.<br>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60 son 28.01.2022 yil.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. http://estrada-art.uz/<br>2. http://www.youtube.com<br>3. http://library.konservatoriya.uz/<br>4. www.musiqa.uz<br>5. http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami |
| 7. | Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislilari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil "20" avgust -dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>D.D.Amanullayeva – O'zR san'at arbobi, O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti "Estrada xonandaligi" kafedrasi mudiri, professor |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>A.Ikramov – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, B.Zokirov nomidagi O'zbekiston milliy estrada simfonik orkestri badiiy rahbari va bosh dirijyori<br><br>Yu.Turayev – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti "Estrada xonandaligi" kafedrasi professori |